# XALQ DEPUTATLARI SO'X TUMAN KENGASHI

# Q A R O R I

2024 - yil 6 - fevral VI-82-9-11-159-K/24 So‘x tumani hokimligi

**2024 yilda So‘x tumanida yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish to‘g‘risida**

Tumanda aholi soni 82315 kishini tashkil etadi mehnat resurslari soni 41451 nafarni, iqtisodiy fa’ol aholi 32561 nafarni, xalq xujaligining turli sohalarda band bo‘lgan aholi soni 29639 nafarni, shundan rasmiy sektorlarda 11358 nafarni, norasmiy sektorlarda 13217 nafarni tashkil etadi Xorijiy ishga ketganlar 5064 kishini tashkil etadi Ishga joylashtirishga mo‘htoj, ish bilan band bo‘lmagan aholi (ishsizlar) 2922 kishini yoki ishsizlik darajasi (9) foizni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 9-yanvardagi PQ-7 sonli qaroriga asosan 2024 yilda aholi bandligini ta’minlash,yangi ish o‘rinlari dasturi qabul qilindi.

O‘shbu qaror ijrosi yuzasidan tumanda 2024 yilda 9032 nafar doimiy va mavsumiy yangi ish o‘rinlari yaratilishi bo‘yicha dastur ishlab chiqildi. (1-ilovaga muvofiq)

**Jumladan;**

-investitsiyalar, tashqi savdo va mahalliy savdoni rivojlantirish hisobiga 708 ta yangi ish o‘rinlari yaratish (1.1-ilovaga muvofiq)

-xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish hisobiga 5200 ta yangi ish o‘rinlari yaratish belgilandi. (1.2-ilovaga muvofiq)

-qishloq, suv va urmon xujaligini rivojlantirish hisobiga 2843 ta yangi ish o‘rinlari yaratish (1.3-ilovaga muvofiq)

-qo‘rilish, transport va kommunal sohalar hisobiga 281 ta yangi ish o‘rinlari yaratish (1.4-ilovaga muvofiq)

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Tojiboev hamda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i G‘.Melnikovlarning “Tumanda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi hisobotlarini muhokama qilib, “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi;

**Q A R O R Q I L A D I;**

1.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Tojiboev hamda tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i G‘.Melnikovlarni “Tumanda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi hisobotlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Tojiboev)ga, tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi hamda tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

-tumanda 2024 yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi banligiga ko‘maklashish dasturi ijrosini so‘zsiz ta’minlash

-yangi ish o‘rinlarini yaratishda aholini,ayniqsa, yoshlarning bandliginita’minlashga qaratilgan barcha imkoniyatlarni safarbar etish

-fa’oliyat ko‘rsatilmayotgan,samarasiz foydalanilmayotgan binolar negizida yangi ish o‘rinlari choralarini ko‘rish

- budjet mablag‘lari hamda Davlat xususiy sherikchilik asosida ishga tushadigan ijtimoiy ob’ektlar hisobiga

-maishiy,savdo,oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berishda serviz xizmatlar ko‘rsatishni rivojlantirish hisobiga yangi ish o‘rinlari yaratish

- sektorlar kesimida tashkilot va korxonalarni rahbarlari bilan hamkorlikda tuman aholisini,ayniqsa “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar,yoshlarni ishsiz qatlamini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, tadbirkorlikga yunaltirish bo‘yicha ishlarni jadallashtirish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i (G‘.Melnikov)ga (1.5-ilovaga muvofiq)

-tumanda mehnat yarmarkalarining o‘tkazilishini sifat va natijadorlik jihatdan yuqori darajada tashkillashtirish va mehnat yarmarkalarini o‘zida ishga joylashtrish orqali ularda ishtirok etayotgan ishsizlarni ish bilan ta’minlashiga erishish

-tumanni har bir mahallalarida ishsiz fuqarolarni qamrab olgan holda haq tulanadigan jamoat ishlari dasturining sifatli tuliq va samarali bajarilishini ta’minlash

-ishsiz va ishchi kuchiga bo‘lgan talab oshgan hududlarda fuqarolarni tezkor tartibda jamoat ishlariga jalb etish bo‘yicha qo‘shimcha buyurtmalarni shaklantirish

-jamoat ishlarida qatnashuvchi ishsiz va band bo‘lmagan fuqarolar ro‘yxatini shaklantirishda mazkur hududda doimiy va vaqtincha yashovchi band bo‘lmagan fuqarolarni qamrab olishda tuman Kengashi deputatlari bilan hamkorlikda samarali ishlar tashkil etish choralarini kurish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman davlat soliq inspeksiyasiga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari raislari hamda hokim yordamchilari bilan hamkorlikda:

- xususiy sektorda ro‘yxatdan o‘tmasdan ish yuritayotgan tadbirkorlarni aniqlash va ularning faoliyatini qonuniylashtirishda ko‘maklashish;

- tijorat banklari va maxsus jamg‘armalar hisobidan beriladigan kreditlar hisobiga yangi ish o‘rinlari yaratish;

- ishga qabul qilingan va o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarning mehnat munosabatlarini o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirish orqali budjetga soliq tushumlari oshirilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Kuyidagilar dastur ijrosini ta’minlashga **shaxsan mas’ul** etib belgilansin;

Investitsiya tashqi savdo masalalari bo‘yicha hokim o‘rinbosari A.Safarov yirik va hududiy investitsiya loyihalari bo‘yicha

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Tojiboev va Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i G‘.Melnikov-xizmat kursatish yunalishi bo‘yicha,

Qishloq va suv xujaligi buyicha hokim o‘rinbosari M. Mavlonbekov - qishloq xujaligi yunalishi bo‘yicha;

Tuman hokimining sanoatni rivojlantirish kapital qurilish kamunikatsiyalar va kamunal xujaligi bo‘yicha o‘rinbosri S. Murzoev-qurilish yunalishi bo‘yicha;

6.Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi N.Sadirbekov hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Tojiboev zimmalariga yuklatilsin.

**Kengash raisi** **S.Sayidmusaev**

Xalq deputatlari So‘x tuman Kengashining
2024-yil 6-fevraldagi
VI-82-9-11-159-K/24-son qaroriga
1-ilova

**2024 yilda aholini doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda bandligini ta’minlash**

**PROGNOZ PARAMETRLARI**

| № | Tuman nomi | jami | Shundan | | | sohalar kesimida: | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Doimiy | Mavsumiy | Vaqtinchalik | Investitsiyalar mahalliy sanoatni rivojlantirish hisobiga | shundan | | Xizmat ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish hisobiga | shundan | | Qishloq xo‘jaligida | shundan | | Qurilish sohasida | shundan | |
| | | | | | | | Yirik (tarmoq) investitsiya loyihalari | Xududiy investitsiya loyihalari | | doimiy | vaqtinchalik | | doimiy | mavsumiy | | doimiy | vaqtinchalik |
| **1** | **So‘x** | **9032** | **3709** | **2545** | **2778** | **708** | **80** | **628** | **5200** | **2607** | **2593** | **2843** | **298** | **2545** | **281** | **96** | **185** |

Xalq deputatlari So‘x tuman Kengashining
2024-yil 6-fevraldagi
VI-82-9-11-159-K/24-son qaroriga
2-ilova

**2024 yilda yirik va hududiy investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga tashkil etiladigan yangi ish o‘rinlari**

**PROGNOZ**

| № | Tuman nomi | jami | jumladan | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Yirik (tarmoq) investitsiya loyihalari | Shundan | | | Xududiy investitsiya loyihalari | Shundan | | |
| | | | | sanoatda | Xizmat ko‘rsatish | Qishloq xo‘jaligi | | sanoatda | Xizmat ko‘rsatish | Qishloq xo‘jaligi |
| 1 | So‘x | 708 | 80 | 80 | | | 628 | 331 | 205 | 92 |

Xalq deputatlari So‘x tuman Kengashining
2024-yil 6-fevraldagi
VI-82-9-11-159-K/24-son qaroriga
3-ilova

**2024 yilda xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga aholi bandligini ta’minlash**

**PROGNOZ PARAMETRLARI**

| № | Tuman nomi | jami | shundan | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | doimiy | vaqtinchalik | Xizmat ko‘rsatuvchi sub’ektlarda tashkil etilgan ish o‘rinlari (yuridik va YaTTlardagi yangi ish o‘rni) | jumladan | | Moliyaviy xizmatlar | Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | Transport xizmatlari | Qishloq xo‘jaligi xizmatlari sohasida | Mehmonxona va turizm xizmatlari | Ijtimoiy sohalar | | Umumiy ovqatlanish | | |
| | | | | | | doimiy | vaqtinchalik | | | | | | Ta’lim xizmatlari | Sog‘liqni saqlash xizmatlari | | doimiy | vaqtinchalik |
| 1 | So‘x | 5200 | 2607 | 2593 | 1300 | 678 | 622 | | | 9 | | 10 | 18 | 22 | 55 | 27 | 28 |

| **Savdo** | | | **Maishiy xizmat** | | | **Boshqa xizmat ko‘rsatish** | | | **Xizmatlar sohasida o‘zini o‘zi band qilish** | | | **Norasmiy ish o‘rinlarini rasmiy sektorga o‘tkazish** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | **doimiy** | **vaqtinchalik** | | **doimiy** | **vaqtinchalik** | | **doimiy** | **vaqtinchalik** | | **Doimiy** | **Mavsumiy** | |
| **200** | **100** | **100** | **120** | **60** | **60** | **866** | **432** | **434** | **2817** | **846** | **1971** | **1083** |

Xalq deputatlari So‘x tuman Kengashining
2024-yil 6-fevraldagi
VI-82-9-11-159-K/24-son qaroriga
4-ilova

**2024 yilda qishloq xo‘jaligida aholini doimiy va mavsumiy ishlarda band**

| № | Hudud nomi | JAMI | shundan: | | jumladan: | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Doimiy | Mavsumiy | Agro klasterlarda | shundan: | | Fermer xo‘jaliklarida | shundan: | | Dehqon xo‘jaligi uchun yer ajratish (Ye-auksion) | shundan: | | Takroriy ekin uchun g‘alladan bo‘shagan yer maydonlarini ajratish (mavsumiy) | Tomorqada bandlik (mavsumiy) | Pillachilik | shundan: | | Suv xo‘jaligi ob’ektlari muhofaza zonasi atrofidagi yerlar hisobidan | shundan: | |
| | | | | | | doimiy | mavsumiy | | doimiy | mavsumiy | | doimiy | mavsumiy | | | | doimiy | mavsumiy | | doimiy | mavsumiy |
| 1 | So‘x | **2 843** | 298 | 2 545 | **0,00** | | | **397** | *38* | *359* | **467** | **156** | **311** | **237** | **299** | **1 403** | *102* | *1 301* | **40** | **2** | **38** |

Xalq deputatlari So‘x tuman Kengashining
2024-yil 6-fevraldagi
VI-82-9-11-159-K/24-son qaroriga
5-ilova

**2024 yilda qurilish sohasida aholini doimiy va vaqtinchalik ishlarda band qilish**

**PROGNOZ PARAMETRLARI**

| № | Tuman nomi | Jami | **Shundan** | | **Jumladan** | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Doimiy | Mavsumiy | **Uy joy qurilish** | **Shundan** | | **Sanoat korxonalar qurilishi Doimiy** | **Shundan** | | **Ijtimoiy ob’ektlar qurilishi** | **Shundan** | | **Avtomobil va temir yo‘l qurilishi** | **Shundan** | |
| | | | | | | Doimiy | Mavsumiy | | Doimiy | Mavsumiy | | Doimiy | Mavsumiy | | Doimiy | Mavsumiy |
| 1 | So‘x | 281 | 96 | 185 | 36 | 12 | 24 | 11 | 4 | 7 | 155 | 62 | 93 | 79 | 18 | 61 |